



## MILLIY TARBIYA ASOSLARI FANINI O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

## EDUCATIONAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF IMPROVING TEACHING TECHNOLOGY OF THE SUBJECT OF FOUNDATIONS OF NATIONAL EDUCATION

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ОСНОВЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ»

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o‘g‘li  
*Farg‘ona davlat universiteti*

### Annotatsiya.

*Mazkur maqolada “Milliy tarbiya asoslari” fanini o‘qitish texnologiyasini zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Fan mazmunini talabalarga samarali yetkazish, ularning milliy g‘urur, qadriyat va ma’naviy ongini shakllantirishda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va individual yondashuvlar qo’llanishining o‘rnini yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish, psixologik muhitni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** Milliy tarbiya, o‘qitish texnologiyasi, pedagogik yondashuv, psixologik xususiyatlar, innovatsion metodlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, faoliyat, kompetensiya, interaktiv usullar.

### Abstract.

*This article analyzes the issues of improving the technology of teaching the subject “Fundamentals of National Education” based on modern pedagogical and psychological approaches. The role of interactive methods, innovative technologies and individual approaches in effectively conveying the content of the subject to students, forming their national pride, values and spiritual consciousness is highlighted. Also, recommendations are given on developing the methodological competence of teachers and organizing the educational process taking into account the psychological environment.*

**Keywords:** *National education, teaching technology, pedagogical approach, psychological characteristics, innovative methods, spiritual and moral education, activity, competence, interactive methods.*

### **Аннотация.**

В статье анализируются вопросы совершенствования технологии преподавания предмета «Основы национального воспитания» на основе современных педагогических и психологических подходов. Отмечается роль интерактивных методов, инновационных технологий и индивидуальных подходов в эффективном донесении содержания предмета до учащихся, формировании у них национальной гордости, ценностей и духовного самосознания. Даны рекомендации по развитию методической компетентности педагогов и организации образовательного процесса с учетом психологической среды.

**Ключевые слова:** *Национальное воспитание, педагогические технологии, педагогический подход, психологические особенности, инновационные методы, духовно-нравственное воспитание, деятельность, компетентность, интерактивные методы.*

### **KIRISH**

Bugungi globallashuv jarayonida milliy o'zlikni anglash, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat va ma'naviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada oliy ta'limgiz tizimida "Milliy tarbiya asoslari" fanining ahamiyati yuqoridir. Mazkur fan nafaqat talabalarga nazariy bilim berish, balki ularning hayotiy qarashlarini shakllantirish, o'zligiga sodiq, ongli va faol shaxs bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy ta'limgiz jarayonida o'quv fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va psixologik jihatlarni hisobga olish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bois, "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish texnologiyasini takommillashtirish, uni talabalarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etish, ta'limgiz samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, bu fan orqali talabalarda mustahkam bilim emas, balki ongli, axloqiy va ijtimoiy faol pozitsiyaga ega shaxsni shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Bu esa faqatgina an'anaviy o'qitish uslublari bilan emas, balki shaxsga yo'naltirilgan ta'limgiz texnologiyalari, reflektiv (fikrlashga undovchi) yondashuvlar, muammoli vaziyatlar asosida ta'limgiz berish orqali erishiladi.

Milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'limgiz vositalari bilan uyg'unlashtirish, pedagogning faolligi va kasbiy kompetensiyasi bilan bevosita bog'liq. Pedagog shunchaki bilim beruvchi emas, balki yoshlar ongiga ijobiy g'oyalarni singdiruvchi,

ularni mustaqil fikrlashga, milliy ong va ma’naviyat asosida yashashga yo‘naltiruvchi tarbiyachi bo‘lishi lozim.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy tarbiya mazmuni, uslubi va o‘qitish texnologiyasiga oid ilmiy-adabiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab pedagog olimlar yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, urf-odatlar va tarixiy merosni chuqur singdirishning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratganlar. Xususan, A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, G‘.G‘ulomov, N.Karimov va boshqa pedagog-olimlarning asarlarida tarbiyaning milliy ildizlari va uning zamonaviy ta’limda qo‘llanish uslublari tahlil qilingan.

Pedagogik adabiyotlarda “Milliy tarbiya asoslari” fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faol va interaktiv o‘qitish metodlari, muammoli ta’lim, klaster, “aql charxi”, “rolga kirish” kabi metodlar samarali deb hisoblanadi. Bu usullar o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki qadriyatga asoslangan shaxsiy munosabat, tanqidiy fikrlash va o‘z hayotida qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantiradi, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida “bilish”, “bajarish” va “baholash” bosqichlariga ajratilgan dars strukturalari taklif etiladi. Bu esa pedagogik jarayonni nafaqat axborot yetkazishga, balki o‘quvchining ichki motivatsiyasini faollashtirishga yo‘naltiradi.

Pedagogik metodlar tahlilida quyidagi jihatlar alohida ajralib turadi:

- Didaktik uyg‘unlik: tarbiyaviy maqsadni o‘quv materialiga singdirish;
- O‘quvchi faoliyatiga tayanuvchanlik: darsda faqat tinglovchi emas, faol ishtirokchi bo‘lish imkoniyati;
- Hayotiylik: talaba kundalik hayotda duch keladigan vaziyatlarga milliy qadriyatlar asosida yondasha olish malakasini shakllantirish;
- Refleksiya: har bir darsdan so‘ng talabada ichki tahlil va xulosa qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Shuningdek, zamonaviy metodlar orasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish, video-mavzular, onlayn testlar va virtual muzeylar orqali milliy tarbiya elementlarini kengaytirish imkoniyati ham keng e’tirof etilgan. O‘qituvchining metodik tayyorgarligi, talabalar yoshiga mos psixopedagogik yondashuvlar va zamonaviy metodlardan kompleks foydalanish “Milliy tarbiya asoslari” fanining o‘zlashtirilishini sezilarli darajada oshiradi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

“Milliy tarbiya asoslari” fanini samarali o‘qitishda pedagogik-psixologik yondashuvlar markaziy o‘rin tutadi. Bu fan o‘z mohiyatiga ko‘ra, nafaqat nazariy bilim beruvchi, balki yosh avlod qalbida milliy ong, ma’naviy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, tarixiy merosga hurmat kabi hayotiy pozitsiyalarni shakllantiruvchi kuchli ta’sir vositasidir. Shu sababli uni o‘qitishda faqat axborot uzatishga yo‘naltirilgan

an'anaviy yondashuvlar emas, balki talabaning ichki dunyosiga, tafakkuri va hissiyotlariga ta'sir etuvchi ta'lim metodlari qo'llanishi muhim ahamiyatga ega.

O'rganilgan adabiyotlar, amaliy tajriba va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida aniqlanishicha, Mazkur fanning samaradorligi quyidagi omillar bilan chambarchas bog'liq:

- birinchidan, o'qituvchining metodik va ma'naviy tayyorgarligi;
- ikkinchidan, interaktiv o'qitish usullaridan samarali foydalanish;
- uchinchidan, psixologik yondashuv asosida talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- to'rtinchidan, dars mazmunining milliy qadriyatlar asosida hayotga bog'lab o'rgatilishidir.

Ko'plab umumta'lim muassasalarida ushbu fanni o'qitishda metodik materiallar, didaktik vositalar yetarli darajada ishlatilmayapti, bu esa talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Bu holat o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalarni yetarli darajada o'zlashtirmaganligi yoki amaliy tajribasi kamligidan dalolat beradi. Mazkur muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarida milliy tarbiyaga oid zamonaviy yondashuvlar, pedagogik psixologiya asoslari chuqur o'rganilishi lozim.

Shuningdek, fanni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlaridan foydalanish talabani markazga qo'ygan holda, uning qiziqishi, ehtiyoji va dunyoqarashiga mos tarzda o'qitish yuqori natijalarni beradi. Bu yondashuv orqali talaba nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki o'zi mustaqil ravishda fikrlaydi, tahlil qiladi, muhokama yuritadi va eng asosiysi, o'z shaxsiy qadriyat tizimini milliylik asosida shakllantira boshlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish texnologiyasini takomillashtirish nafaqat ta'lim sifatiga, balki jamiyatning umumiy ma'naviy salohiyatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, ushbu fan o'quv dasturida markaziy o'rinni egallashi, unga yangicha zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida yondashish strategik ahamiyatga egadir.

## **XULOSA**

XXI asrda ta'lim jarayonining asosiy vazifasi – bilimli, fikrlovchi, o'z milliyligiga sodiq, zamonaviy dunyoqarashga ega, ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Aynan shu nuqtai nazardan, "Milliy tarbiya asoslari" fanining o'quv tizimidagi o'rni va roli beqiyosdir. Bu fan o'z mazmun-mohiyati bilan nafaqat o'quvchilarga milliy qadriyatlarni o'rgatadi, balki ularni o'zligiga hurmat, Vatanga sadoqat, ajdodlar merosiga fidoyilik, axloqiy poklik, ijtimoiy faollik kabi yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalaydi.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur fan samaradorligini oshirishda pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim o'rinni tutadi. Fan mazmunini yetkazishdagi

texnologik yondashuvlar o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish, shaxsiy qadriyat tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, “Milliy tarbiya asoslari” fanini o‘qitishda an’anaviy yondashuvlardan ko‘ra, interaktiv, innovatsion, reflektiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlar samaraliroq ekanligi amaliyotda o‘z isbotini topmoqda. Shuningdek, o‘quvchilar yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar, ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mavzuni chuqurroq anglash, uni shaxsiy hayot tajribasi bilan bog‘lay olishiga turtki beradi. Ta’limning faqat intellektual emas, balki emotsional va axloqiy qirralarini rivojlantirish orqali o‘quvchi shaxsining har tomonlama shakllanishi ta’minlanadi.

Xususan, tahlil etilgan adabiyotlar va amaliy kuzatishlar asosida quyidagi ilmiy asoslangan xulosalarga kelindi:

- Milliy tarbiya asoslari fani nafaqat axborot yetkazuvchi, balki shaxsiy tarbiyani yo‘naltiruvchi, ong va tafakkurda qadriyatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida qaralishi zarur;
- Fan o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasi, psixologik sezuvchanligi va metodik mahorati ushbu darslarning ta’sirchanligini belgilovchi asosiy omillardandir;
- Ta’limda muammoli ta’lim, munozarali savollar, kuzatuv va tahlil metodlari, hayotiy vaziyatlar asosidagi topshiriqlar kabi usullarni joriy etish orqali o‘quvchilarni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish mumkin;
- Ta’lim mazmunining milliy qadriyatlар bilan uyg‘unligi, uni o‘quvchilarning shaxsiy hayot tajribasi bilan bog‘lab o‘rganish, mazkur fan samaradorligini oshirishda strategik ahamiyatga ega.

“Milliy tarbiya asoslari” fanining o‘quv jarayonida to‘laqonli tatbiq etilishi, uning zamnaviy pedagogik-psixologik asoslarda o‘qitilishi orqali nafaqat sifatli bilim beriladi, balki ijtimoiy barqarorlik, madaniy vorislik va milliy birlikka sodiq yosh avlodni tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. A.Avlonyi, Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, –1992.
2. H.G‘ulomov, Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, –2019.
3. Z.Qodirova, Milliy tarbiya asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, –2020.
4. N.Karimova, Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va milliy qadriyatlар. – Buxoro: BDU, –2021.
5. H.To‘xtaboyev, “Milliy tarbiya va ma’naviyat uyg‘unligi”. // Yosh pedagoglar jurnali, –2022, №3, 45–52-betlar.

6. 2020-yil 14-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4845-sonli qarori: “Kitob mahsulotlarini chop etish va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
7. A.Qodirov, D.Raximova, Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asoslari. – Toshkent: Fan, –2018.
8. M.Muminova, Pedagogik psixologiya: O‘quvchi shaxsini rivojlantirishning zamonaviy yo‘llari. – Samarqand: Registon nashriyoti, –2023.
9. D.Yusupova, “Milliy tarbiya asoslari fanida interaktiv metodlar qo‘llash samaradorligi”. // Zamonaviy ta’lim, 2021, №2, 38–44-betlar.